

O'ZBEK XONLIKARINING ROSSIYA IMPERIYASI TOMONIDAN BOSIB OLINISHI. MUSTAMLAKACHILIK ZULMIGA QARSHI MILLIY-OZODLIK HARAKATLARI"

**Boborahimov Shoxruhbek Inoyatillo o'g'li, Axtamova Xurshida Jamshid qizi,
Jo'rayeva Nodira Sadulla qizi**

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti talabalari. (O'zbekiston)

A R T I C L E I N F O.**Kalit so'zlar:**

Moskva savdo kompaniyasi, Antoni Jenkinson, Robert Jonson, Bekovich-Cherkasskiy, kazak, rota.

Anotatsiya

"O'zbek xonlikarining Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olinishi. Mustamlakachilik zulmiga qarshi milliy-ozodlik harakatlari" nomli maqolada, o'zbek xonliklariga Rossiya imperiyasi tomonidan amalga oshirilgan harbiy ekspeditsiyalar, o'zbek xonlikarining Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olinishi, mustamlakachilik zulmiga qarshi harakatlar, Rossiya imperiyasi tomonidan amalga oshirilgan o'zbek xonliklarini egallashning bosqichlari, Rossiya imperiyasi bosib olgan hududlarda Turkiston general-gubernatorligining tuzilishi kabi masalalar yoritib berilgan.

<http://www.gospodarkainnowacje.pl/> © 2022 LWAB.

Rossiyaning o'zbek xonliklari hududlariga dastlabki harakatlari, XVI asrning ikkinchi yarmiga kelib Rossiya podsholigi o'z hududlarini kengaytira borib Qozon, Ashtarkon (Astraxan) va Sibir xonliklarini bosib oldi. Shundan so'ng rus podsholarining O'rta Osiyo hududlariga qiziqishi yanada kuchaya boshlaydi. Podsho hukumati bu hududlar haqida ma'lumot to'plash uchun 1558-yil aprelda "Moskva savdo kompaniyasi" vakili Antoni Jenkinsonni Richard va Robert Jonsonlar bilan birgalikda 1589-yil sentabrigacha, 1620-yilda Ivan Xoxlovni, 1669-yilda B.A.Pazuxin va S.I.Pazuxinlarni, 1675-yilda B.A.Daudov boshchiligidagi elchilarni Buxoro, Xiva, Samarcand, Urganch va Balxga jo'natgan edi. Bu elchilarining asosiy maqsadlari O'rta Osiyo xonliklari va unga qo'shni bo'lgan hududlarning iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va harbiy ahvoli, xalqaro aloqalari haqida ma'lumotlar to'plashdan iborat edi. Ammo O'rta Osiyo hududlarini bosib olish uchun to'g'ridan to'g'ri amaliy harakatlar XVIII asr boshlarida, ya'ni Pyotr 1 hukumronligi davrida boshlandi. Mang'ishloqlik turkman savdogarlari Xo'ja Nafas orqali Amudaryo sohili oltin qumlariga boyligi haqida xabarni eshitgan Pyotr 1 1717-yilda knyaz Bekovich-Cherkasskiy ekspeditsiyasini 3 mingdan ortiq qo'shin bilan Xiva xonligiga jo'natdi. Bu ekspeditsiya muvaffaqiyatli chiqmay uning qo'shnlari Xiva xoni Sherg'ozixon tomonidan qirib tashlandi.(1)

1864-yil bahoridan Rossiyaning O'rta Osiyo xonliklariga e'lon qilinmagan bisqinchilik yurishlari boshlanib ketdi. M. Chernyayev boshchiligidagi rus qo'shnlari Qo'qon xonligining tayanch shaharlari Avliyota, So'zak, Turkiston shaharlarini egalladilar. Bosqinchilar 1864-yil 14-iyulda Chimkentni bosib olishga harakat qildilar, ammo shahar himoyachilari tomonidan zarbaga uchragan rus qo'shnlari Chimkentni egallay olmadilar. Biroq 1864-yil 14-sentabrda M. Chernyayev Chimkentga yangitdan

yurish uyunushtirdi va 22-sentabrda shahar bosib olindi. Chernyayev 1866-yilning yanvar oyida Buxoro amirligini bo'yundurish uchun unga qarshi e'lon qilinmagan urush boshladi. Rus istilochilar Buxoro amirligiga qarshi urush harakatlarini ikki harbiy mavsumda - 1866 va 1868-yillarda o'tkazdilar. Chernyayev 1866-yil yanvar oyida Jizzaxga hujum qildi, ammo mag'lubiyatga uchradi.(2)

Rossiyaning o'zbek xonliklariga nisbatan siyosatini izchil amalga oshirish tarafdaridan biri bo'lgan Orenburg general-gubernatori B.A. Perovskiy podsho Nikolay I farmoniga ko'ra 1839-yilda 5 mingdan ziyod qurollangan qo'shin bilan Xiva xonligi ustiga yurish boshladi. Ammo yo'ltagi og'ir shart-sharoitlar rus qo'shinlarining ahvolini qiyinlashtirdi. 1840-yilning boshlarida Xiva chegaralariga yetib kelgan Perovskiy qo'shinlari Xiva xoni Olloqulxonning o'zbek, qozoq va turkmanlardan iborat birlashmagan qo'shinlari tomonidan tor-mor etildi. (1)

Rossiya hukumron doiralari endi istilo tig'ini Xivaga qaratdilar. Xiva xoni Muhammad Rahimxon 1872-yilda Angliyadan so'rab qilgan murojaati javobsiz qoldirildi. Angliyaning hukumron doiralari Xiva mustaqilligini saqlab qolishidan manfaatdor bo'lsalar ham, Rossiya bilan ochiq to'qnashuvdan xavfsirar edilar. Xonlik qo'shinida hammasi bo'lib 27ta eski zambarak, 2ming otliq askar, 4ming navkardan iborat qo'shin bo'lib, ular ham asosan poytaxtda jamlangan edi. Turkiston general-gubernatori Fon Kaufman hujum boshlash oldidan Xiva siyosiy tarafdan yakkalab qo'yish choralarini ko'rdi. Bosqinchilar 1873-yil bahorida Xivaga qarshi yurish boshladi. 22 rota, 1800 kazak, 18 to'pdan iborat Turkiston qo'shiniga general fon Kaufman, 15 rota, 600 kazak, 8 to'pdan iborat Orenburg otryadiga general Verevkin, 12 rota, 800 kazak, 8 to'pdan iborat Mang'ishloq otryadiga polkovnik Lomakin qo'mondon edi. Rus qo'shinlari Qo'ng'iroq, Xo'jayli, Mang'it, Xazorasp qal'alarini istilo qildilar, 29-mayda Xiva egallandi, shahar talon-taroj qilinib, qimmatbaho oltin-kumush buyumlar va nodir qo'lyozma asarlar Peterburgga olib ketildi.(3)

Chor Rossiyasining Turkistonni bosib olishi podsho Aleksandr II hukumronligi davrida nihoyatda tezlashadi. Chor Rossiyasining Turkistonni bosib olishi 4 bosqichga bo'linadi. Birinchi bosqich 1847-yildan boshlanib 1865-yilga qadar davom etadi. Bu bosqichda Qo'qon xonligiga qarashli hududlar bosib olinadi. Ikkinci bosqich 1865-yildan boshlanib 1868-yilga qadar davom etadi. Bu davrda Toshkent va Buxoro amirligi hududlari bosib olinadi. Uchinchi bosqich 1873-1879-yillarni o'z ichiga olib, bu davrda Xiva va Qo'qon xonligi hududlari chor qo'shinlari tomonidan zabt etiladi. To'rtinchi bosqich 1880-1885-yillarni o'z ichiga olib bu davrda hozirgi Turkmaniston yerlari bosib olinadi.(4)

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, chor Rossiyasi davlatining Turkiston hududida olib borgan 1864-1895-yillardagi bosqinchilik qonli va dahshatlari qirg'inbarot urushlari natijasida Vatanimiz xalqlari o'z gardanlariga og'ir va sharmandali mustamlakachilik bo'yinturug'ini ilishga majbur bo'ldilar. Bu bosqinchilikdan iborat urushlar oqibatida chor Rossiyasi 1533255 kvadrat kilometrdan iborat yoki Fransiya, Germaniya, Avstriya-Vengriya hududlarini birga qo'shib hisoblaganda teng keladigan yerlarni egallab oladi.

Foydalanimgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti "O'zbekiston tarixi" II jild . Toshkent-2019.
2. R.Xoliqulov, K.G'aniyev, M.Nasrullayev "O'zbekiston tarixi". Samarqand-2019.
3. H. Boboyev, Z. Xidirov, J. Shodihev, M. Ahmedova "O'zbek davlatchiligi tarixi". II kitob. Toshkent-2009.
4. R. Shamsutdinov, Sh. Karimov, O'. Ubaydullayev "Vatan tarixi". II kitob. Tishkent-2010.